BOŞLANĞIÇ SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIŞ ORQALI ÖQUVÇILARNING FIKRLAŞ QOBILIYATINI RIVOJLANTIRIŞ

Usmanova Gulxayo Muzaffar qizi,
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Özbekiston milliy pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boşlanğiç ta'lim) yönalişi
1-bosqiç magistranti
Sariyev Şarafjon Urozbayeviç,
Nizomiy Ganjaviy nomidagi ÖzMPU,
"Boşlanğiç ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Uşbu maqolada boşlanğiç sinf öquvçilarining fikrlaş qobiliyatini rivojlantirişda interfaol metodlardan foydalanişning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Öquvçilarda mustaqil fikrlaş, öquvçilarning faolligini oşiriş, öz nuqtayi nazarini asoslaş, ijodiy va tanqidiy fikrlaşga yönaltirişda interfaol metodlarning ahamiyati oçib berilgan. Şuningdek, dars jarayonida "Kaft va sözlar sehri", "Ma'no diktanti" va muammoli savollar asosida işlaş kabi metodlardan maqsadli foydalaniş orqali öquvçilarning biliş faolligini oşiriş imkoniyatlari körib çiqilgan.*

Kalit sözlar: *boşlanğiç ta'lim, interfaol metod, mustaqil fikrlaş, faollikni oşiriş, ijodiy fikrlaş, tanqidiy fikrlaş.*

Аннотация. *В статье рассматривается педагогический потенциал использования интерактивных методов для развития мыслительных навыков у учащихся начальных классов. Подчеркивается значимость интерактивных методов в формировании самостоятельного мышления, повышении вовлеченности учащихся, развитии умения обосновывать собственную точку зрения, а также в стимулировании творческого и критического мышления. Кроме того, в работе исследуются способы активизации познавательной деятельности школьников на уроках посредством целенаправленного применения таких методов, как «Магия ладоней и слов», «Смысловой диктант» и использование проблемно-ориентированных вопросов.*

Ключевые слова: *начальное образование, интерактивный метод, самостоятельное мышление, повышение вовлеченности, творческое мышление, критическое мышление.*

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of using interactive methods to develop thinking skills in primary school students. It highlights the significance of interactive methods in fostering independent thinking, increasing student engagement, enabling students to substantiate their own points of view, and encouraging creative and critical thinking. Furthermore, the study explores ways to enhance students' cognitive engagement during lessons through the purposeful application of methods suç as "The Magic of Palms and Words," "Meaning-Based Dictation," and the use of problem-oriented questions.*

Keywords: *primary education, interactive method, independent thinking, enhancing engagement, creative thinking, critical thinking.*

KIRIŞ

Bugungi kunda ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri öquvçilarga tayyor bilimlarni yetkaziş bilan çeklanib qolmasdan, ularda mustaqil fikrlaş, tahlil qiliş, taqqoslaş va xulosa çiqariş könikmalarini şakllantirişdan iborat. Ayniqsa, boşlang‘iç ta’limda öquvçilarning intellektual salohiyatini rivojlantiriş keyingi ta’lim jarayonining samaradorligi uçun muhim zamin yaratadi.

4-sinf öquvçilari öquv materiallarini özlaştiriş bilan bir qatorda, öz fikrlarini ifodalaş, hodisalar örtasidagi bog‘liqlikni aniqlaş va turli vaziyatlarga nisbatan mustaqil munosabat bildiriş imkoniyatlarini rivojlantirib boradilar. Şu sababli dars jarayonida öquvçilarni faol iştirok etişga undaydigan, ularning izlanişi va mulohaza yuritişini qöllab-quvvatlaydigan ta’lim metodlaridan foydalaniş alohida ahamiyat kasb etadi.

Interfaol ta’lim metodlari öqituvçi va öquvçilar, şuningdek, öquvçilarning özaro hamkorligini taşkil etişga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali öquvçilar nafaqat yangi bilimlarni özlaştiradilar, balki öz fikrlarini asoslaş, boşqalarning fikrlarini tinglaş va muammolarga turli nuqtayi nazardan yondaşişni ham örganadilar.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotning pedagogik yönalişi 4-sinf öquvçilarining yoş xususiyatlariga mos topşiriqlarni tanlaş va interfaol metodlarni fan mazmuni bilan uyg‘unlaştirişga qaratiladi.

Quyidagi metodlarni boşlang‘iç sinf darslarida qöllaş maqsadga muvofiq:

1. “Ma’no diktanti” – öquvçilarning lug‘at boyligini oşiriş va atamalarni aniq tuşunişlariga yordam beradigan ekstremafaol öqitiş usuli. Uşbu metodda öqituvçi sözlarning özini emas, balki ularning ta’riflarini (ma’nolarini) aytadi. Öquvçilar uşbu ta’rif asosida sözlarni topib, yozişlari kerak.

ONA TILI FANI

Mavzu: Imlo qoidalari (ikki undoşli sözlar).

Öqituvçi aytadi: “Ikki şaxs yoki davlat örtasidagi döstona kelişuv, bitim”.

Öquvçilar yozadi: “Şartnoma”.

Öqituvçi aytadi: “Biror iş yoki hodisaning sababi yoki zarurati yöqligi”.

Öquvçilar yozadi: “Maqsadsiz”.

2. “Kaft va sözlar sehri” metodi – bu öquvçilarning fikrlaş, tahlil qiliş va muhim jihatlarni eslab qoliş qobiliyatini rivojlantirişga yordam beradigan vizual metodlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili fanida bu metod mavzularni tizimli tuşuniş, grammatik qoidalarni eslab qoliş va ijodiy fikrlaşni rivojlantiriş uçun juda qulaydir. Uşbu metod boşlang‘iç sinflardan boşlab yuqori sinflargaça qöllanilişi mumkin.

“Kaft va sözlar sehri” metodining mohiyati

Uşbu metodda inson qöli, ya’ni kaft asosiy ramz sifatida olinadi. Har bir barmoq va kaft muayyan tuşunçani ifodalaydi. Öquvçilarga grammatika, söz turlari, gap bölaklari, matn tahlili kabi mavzularni öz kaftlari orqali örganiş va yodlaş imkonini beradi.

“Kaft” metodining qöllanilişi:

Öqituvçi öquvçilarga quyidagiça topşiriq beradi: “Öz qöllaringizning kaftini çizing. Har bir barmoq va kaftga mavzu böyiça muhim tuşunçalar joylaştiring”.

Masalan, agar mavzu “Söz turlari” bölsa, bu tartib quyidagiça böladi:

Boş barmoq – “Söz turlari nima?”

Körsatkiç barmoq – “Tub söz va yasama söz farqlari”

Örta barmoq – “Sözlarning lug‘aviy va grammatik ma’nosi”

Nomsiz barmoq – “Fe’l, sifat, ot kabi söz turkumlariga misollar”

Kiçik barmoq – “Mavzu böyiça xulosa”

Kaft (markaz) – “Söz turlari gap tuzişda muhim ahamiyatga ega”

Bu usul yordamida mavzularni tizimli örganiş, fikrlaş va mustaqil xulosa çiqariş osonlaşadi.

“Kaft” metodining afzalliklari

Mavzuni çuqurroq tuşuniş – öquvçi ma’lumotlarni bosqiçma-bosqiç tahlil qiladi. Eslab qolişni osonlaştiradi. Vizual yondaşuv bölgani uçun ma’lumotlar ongda yaxşiroq mustahkamlanadi.

Faol örganiş – öquvçilar dars jarayonida faol iştirok etadi, savollar beradi va mustaqil fikr bildiradi.

Mavzularni mustahkamlaş – tahlil qiliş va xulosa çiqariş könikmalari şakllanadi.

Interfaol uslub – öyinli va qiziqarli bölgani uçun öquvçilar darsga qiziqib qatnaşadi.

Amaliy misollar:

Mavzu: “Gap bölaklari”

Boş barmoq – “Gap bölaklari nima?”

Körsatkiç barmoq – “Ega va kesimning örni”

Örta barmoq – “Töldiruvçi, aniqlovçi, hol”

Nomsiz barmoq – “Gap bölaklariga misollar”

Kiçik barmoq – “Men gap bölaklarini ajrata olamanmi?”

Kaft – “Gap bölaklarining gap tuzişdagi ahamiyati”

“Kaft va sözlar sehri” metodi ona tili fanida turli mavzularni özlaştiriş, tahlil qiliş va yodda saqlaş uçun samarali metodlardan biridir. Ayniqsa, boşlang‘iç sinflarda öquvçilarning dars jarayonida faol iştirok etişiga, mustaqil fikrlaşiga va örganganlarini xotirada mustahkamlaşga yordam beradi. Bu metodni yozma va og‘zaki nutq rivojlantiriş, grammatik qoidalarni mustahkamlaş va ijodiy fikrlaşni östiriş uçun keng qöllaş mumkin. Mazkur metodlarni qöllaşda topşiriqlarning öquvçilar yoşiga mosligi, dars maqsadi bilan bog‘liqligi va har bir bolaning iştirok etiş imkoniyati hisobga olinişi lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Interfaol metodlarning pedagogik ahamiyati, avvalo, öquvçini ta’lim jarayonining faol iştirokçisiga aylantirişida namoyon böladi. An’anaviy savol-javob bilan çeklanib qolmasdan, muammoli topşiriqlar, guruhli muhokamalar va ijodiy maşqlardan foydalaniş öquvçilarga öz bilimlarini mustaqil qöllaş imkonini beradi.

Birinçidan, interfaol metodlar öquvçilarning mustaqil fikrlaşini qöllab-quvvatlaydi. Öquvçi savolga javob berişda faqat yodlangan ma’lumotni takrorlamasdan, öz tajribasi va mavjud bilimlariga tayanib mulohaza yuritadi.

Ikkinçidan, uşbu metodlar tahlil qiliş va taqqoslaş könikmalarini rivojlantiriş uçun şaroit yaratadi. Masalan, ikki matnning öxşaş va farqli jihatlarini aniqlaş, matematik masalaning turli yeçimlarini taqqoslaş yoki tabiat hodisalarining sabablarini izohlaş öquvçidan mantiqiy fikrlaşni talab etadi.

Uçinçidan, guruhda işlaş öquvçilarning kommunikativ könikmalarini rivojlantirişga yordam beradi. Öquvçilar öz fikrlarini tuşunarli bayon qiliş,

boşqalarning mulohazalarini tinglaş va umumiy qarorga keliş tajribasini egallaydilar.

Şu bilan birga, interfaol metodlardan foydalaniş har doim ham avtomatik ravişda yuqori natija bermaydi. Agar topşiriqlar aniq maqsadga ega bölmasa, guruhdagi ayrim öquvçilar faol qatnaşib, boşqalari çetda qolişi mumkin. Şuning uçun öqituvçi vazifalarni tög‘ri taqsimlaşi, har bir öquvçining iştirokini kuzatişi va natijalarni tegişli mezonlar asosida baholaşi zarur.

XULOSA

Boşlang‘iç sinf öquvçilarining fikrlaş qobiliyatini rivojlantiriş ta’lim jarayonida muhim vazifalardan biridir. Interfaol metodlardan maqsadli foydalaniş öquvçilarning mustaqil fikrlaşi, ma’lumotlarni tahlil qilişi, öz nuqtayi nazarini asoslab berişi va hamkorlikda işlaşi uçun pedagogik imkoniyat yaratadi.

Metodlarni dars mazmuniga mos ravişda qöllaş öquvçilarning biliş faoliyatini faollaştirişga xizmat qilişi mumkin. Bunda metodni tanlaşda öquvçilarning yoş xususiyatlari, öquv maqsadi va topşiriqning murakkablik darajasini hisobga oliş muhimdir.

Şuningdek, interfaol metodlarning samaradorligini faqat nazariy mulohazalar bilan emas, balki amaliy tajriba va ölçab böladigan natijalar asosida baholaş lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda tajriba va nazorat guruhlarini taşkil etiş, fikrlaş könikmalarini baholaş mezonlarini işlab çiqiş hamda olingan natijalarni qiyosiy tahlil qiliş maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **O‘zbekiston Respublikasi.** 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.

2. **Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z.** Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 116 b.

3. **Yo‘ldoshev R., Xusainova R., Bobojonova U.** Ta’limning interfaol metodlari. – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2011. – 56 b.

4. **Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh.** Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 304 b.

5. **Innoyatov U. I., Muslimov N. A., Usmonboyeva M., Inog‘omova D.** Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.

6. **Dewey J.** Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.

7. **Vygotsky L. S.** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

8. **Sariev Sh. U.** Continuous education as a strategic prerequisite of development of national economy for the purposes of shaping a harmoniously developed generation. – URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:LO7wyVUgiFcC.

9. **Sariyev Sh. U.** Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasini takomillashtirish (1–2-sinf materiallari misolida): ped. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LrrORX0AAAAJ&citation_for_view=LrrORX0AAAAJ:VOx2b1Wkg3QC.